QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 3-fevral | 25-4-63-Q/25 | Mirishkor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 3-son, 23-modda) ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Mirishkor tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2025-yil 13-yanvardagi 2-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6- va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Mirishkor tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2025-yil 13-yanvardagi 2-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2.Tumanda yo‘l transport hodisalarini barvaqt oldini olish hamda tirbandliklarni bartaraf etish maqsadida ilovaga muvofiq tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3.Ushbu o‘rnatilgan yo‘l belgisi har haftaning faqat payshanba kuni (Bozor bo‘ladigan kun) amal qilishi belgilansin.

4.Tuman “Obodonlashtirish boshqarmasi” (L.Xidirov)ga “O‘zbekiston” mahallasidagi ichki yo‘llarga (Mol bozor oldiga) yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan ogohlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi, axborot-ishora belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlarining talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

6.Tuman IIB YXHG (J.Shamsiddinov) tomonidan yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda transport vositalarining harakati kunlik nazorat qilib borilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Eshmurodov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **F.G`ulomov**

Mirishkor tuman hokimining
2025-yil 3-fevraldagi
25-4-63-Q/25-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston mahallasida “Obodonlashtirish boshqarmasi” hisobidagi ko‘chalarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari dislokatsiyasi

T/R	Yo‘l belgilari nomi	Joylashtirish joyi	Soni (dona)
Mirishkor tumani			
1	O‘zbekiston mahallasidagi Mol bozori oldidan o‘tgan ichki yo‘lga **“To‘xtash taqiqlanadi” “3,27” yo‘l belgisi o‘rnatish.**	O‘zbekiston MFY Mol bozor oldiga	2 дона